

АЛИШЕР НАВОИЙ ИЖОДИЙ
МЕРОСИНИНГ БАШАРИЯТ
МАЪНАВИЙ-МАЪРИФИЙ
ТАРАҚҚИЁТИДАГИ ЎРНИ

мавзусидаги

**IV АНЪАНАВИЙ ХАЛҚАРО
ИЛМИЙ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛАРИ**

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ НАВОИЙ ВИЛОЯТ ҲОКИМЛИГИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
РЕСПУБЛИКА МАЪНАВИЯТ ВА МАЪРИФАТ МАРКАЗИ
АЛИШЕР НАВОИЙ ХАЛҚАРО ЖАМОАТ БИРЛАШМАСИ
НАВОИЙ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ

**АЛИШЕР НАВОИЙ ИЖОДИЙ МЕРОСИНИНГ БАШАРИЯТ МАЪНАВИЙ-
МАЪРИФИЙ ТАРАҚҚИЁТИДАГИ ЎРНИ**

мавзусидаги IV анъанавий халқаро илмий конференция

МАТЕРИАЛЛАРИ

(2021 йил 23-25 ноябр, Ўзбекистон, Навоий шаҳри)

THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN THE KHAKIMIYAT OF NAVOI REGION
(LOCAL GOVERNMENT)

MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL EDUCATION
REPUBLIC CENTER OF SPIRITUALITY AND ENLIGHTENMENT
ALISHER NAVOI INTERNATIONAL COMMUNITY ASSOCIATION
NAVOI STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE

MATERIALS

of the IV traditional international-scientific conference on the theme

**THE SIGNIFICANCE OF THE CREATIVE INHERITANCE OF ALISHER
NAVOI IN THE SPIRITUAL AND EDUCATIONAL DEVELOPMENT OF
HUMANITY**

(November 23-25, 2021, Navoi, Uzbekistan)

ХОКИМИЯТ НАВОИЙСКОЙ ОБЛАСТИ РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН
МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕСПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
РЕСПУБЛИКАНСКИЙ ЦЕНТР ДУХОВНОСТИ И ПРОСВЕТИТЕЛЬСТВА
МЕЖДУНАРОДНОЕ ОБЩЕСТВЕННОЕ ОБЪЕДИНЕНИЕ
АЛИШЕРА НАВОИ
НАВОИЙСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

МАТЕРИАЛЫ

IV традиционной международной научно-практической конференции на тему

**МЕСТО ТВОРЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ АЛИШЕРА НАВОИ В
ЧЕЛОВЕЧЕСКОМ ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОМ РАЗВИТИИ**

(23-25 ноября 2021 г., Узбекистан, г. Навои)

IV АНЪАНАВИЙ ХАЛҚАРО ИЛМИЙ КОНФЕРЕНЦИЯНИНГ ТАШКИЛИЙ ҚЎМИТАСИ

- | | |
|-------------------|--|
| 1. К.Турсунов | Навоий вилоят ҳокими, раис |
| 2. Қ.Санакулов | НКМК бош директори, НДКИ ректори, раис муовини |
| 3. Н.Маҳмудов | ЎзР ФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти директори, аъзо |
| 4. Ш.Сирожиддинов | Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети ректори, аъзо |
| 5. Б.Собиров | Навоий давлат педагогика институти ректори, аъзо |
| 6. Я.Душанов | Навоий вилоят ҳокими ўринбосари, аъзо |
| 7. С.Хужжиев | НавДПИ илмий ишлар бўйича проректор, аъзо |
| 8. У.Сатторов | Навоий Архитектура ва қурилиш коллежи директори, аъзо |
| 9. А.Аллабердиев | НавДПИ Ўзбек тили ва адабиёти факультети декани, аъзо |

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ

Бахтиёр Назаров
Наим Каримов
Низомиддин
Маҳмудов
Абдулхамид
Холмуродов
Нигора Муродова

Академик
Академик
ЎзР ФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори
институти директори, ф.ф.д., профессор
НавДПИ Ўзбек тили ва адабиёти кафедраси
профессори
НавДПИ Ўзбек тилшунослиги кафедраси
профессори
НавДПИ Ўзбек тили ва адабиёти кафедраси доценти
НавДПИ Ўзбек тилшунослиги кафедраси доценти
НавДПИ Ўзбек тилшунослиги кафедраси катта
ўқитувчиси, ф.ф.ф.д (PhD)

Тоҳир Хўжаев
Ботир Зарипов
Насиба Ярашова

МАСЪУЛ МУҲАРРИРЛАР

Иброҳим Ҳаққул
Эргаш Очилов
Рано Юсубова
Зариф Қувонов

ЎзР ФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори
институти бўлим мудири, ф.ф.д, профессор
ЎзР ФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори
институти катта илмий ходими, ф.ф.н.доцент
НавДПИ Ўзбек тилшунослиги кафедраси мудири,
филология фанлари доктори (DSc)
НавДПИ Ўзбек тили ва адабиёти кафедраси мудири,
ф.ф.ф.д (PhD)

ТАҚРИЗЧИЛАР

Муслиҳиддин
Муҳиддинов

Султонмурод Олимов

Самарқанд давлат университети профессори, ф.ф.д

Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган
маданият ходими, ф.ф.н.

ажойиб мазҳари. (ЛТ., 1991, 29). У илм дарёси ва валилик *гавҳари* бўлиб, олам аҳли орасида ноёб бир киши эди. “Лисонут-тайр” асаридан келтирилган ушбу мисолда Али (р.а.) таърифида ҳам *гавҳар* лексемасидан метафора санъатини ҳосил қилишда усталик билан фойдаланилган.

Хуллас, А.Навоий ўз асарларида минералогия терминларидан санъаткорона фойдаланган. Бу турдаги терминларнинг адабий асардаги бадий-эстетик вазифасини тўла очиб бера олган.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TIL, SO‘Z, TOPONIM VA MA’NO TALQINI

*Bayramali KILICHEV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent,
Buxoro davlat universiteti
(O‘zbekiston)
E-mail: buxara@inbox.ru*

Annotatsiya: *Mazkur tezisda Alisher Navoiyning asarlarida qo‘llangan til, so‘z, ma’no tushunchalari hamda “Muhokamatul lug‘atayn” asari misolida o‘zbek tilidagi ma’noviy munosabat turlaridan biri tahlil etilgan. Unda asosiy e’tibor lug‘aviy darajalanishga asoslangan ma’noviy munosabatda so‘zlardagi ma’no nozikliklari, ularning namoyon bo‘lish holatlariga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *til, so‘z, ma’no, ma’noviy munosabat, ma’no nozikligi, lug‘aviy darajalanish, ma’nodosh.*

Tilshunoslik ilmida so‘zlararo ma’noviy munosabatlar ma’nodoshlik va zid ma’nolilikni o‘rganish bilan cheklanib qoldi. Tilshunoslikda bu munosabatlar qatorida boshqa turlar ham mavjudligi o‘tgan asrning so‘nggi choragida asoslab berildi. Bunga doir fikr-mulohazalar, avvalo, jahon tilshunosligida J.Lokk, E.Sepir, D.Bolinjer, Yu.Apresyan, I.Chervenкова, T.Grigorenko, Yu.Stepanovlarning ishlarida [2], keyinchalik esa o‘zbek tilshunosligida S.G‘iyosov, M.Narziyeva, M.Fayzullayev, O.Bozorovlarning ishlarida umumiy tarzda, Sh.Orifjonova [3], R.Safarova [4], B.Kilichev[5], X.Xayrullayev [6]larning esa maxsus tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Bunda lug‘aviy darajalanishning sinonimiya, antonimiya, giponimiya, partonimiya, pog‘onaviylik kabilarda keng tarqalgan va ustivor bir tur ekanligini isbotlash hamda asoslash muhim ahamiyat kasb etdi.

O‘zbek tilshunosligida so‘zlararo ma’noviy munosabatlardagi darajalanish hodisasini qayd etish to‘la ma’noda ilmiy yangilikmi, degan savolga biz buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning lisoniy qarashlaridan javob topamiz. Zero, mutafakkir shoir borliqning serqirra idrok va intuistiya sohibi sifatida anglar ekan, borliq uning ko‘z o‘ngida nafaqat badiiy rangin bo‘yoqlarda, Haqning betakror tajallilari sifatida, balki murakkab, vahdat suvi bilan sug‘orilgan mustahkam tizim sifatida ham namoyon bo‘ladi. Mutafakkir tilshunos sifatida «tabiat gultoji»ga in’om etilgan til deb atalmish barhak, mavjudotning sir-u sinoatlarini o‘z davri ehtiyoj va talablari asosida ochar ekan, bugungi zamonaviy tilshunoslikning tayanch tushunchalaridan ko‘pchiligiga asos soladi.

Til hodisalarida asosiy qurilish munosabati bo'lgan noto'liq ziddiyat, so'zlarning umumiy lug'aviy mohiyati va so'z ma'nolarida oraliqlanishlar asosidagi farqlar masalasi ularning bugungi yechimi darajasida bo'lmasa-da, yetarlicha yoritilgan.

Buyuk mutafakkirning ko'plab asarlarida *til*, *so'z*, *ma'no* leksemalari uchraydiki, ular turli ma'no va maqsadlarda qo'llangan. Shoir *til* atamasini lison, kalom, kalima, lafz, alfoz (arabcha), suxan, zabon (forscha) so'zlari orqali ifodalagan. U o'z qarashlarini bayon etar ekan, *til* so'zidan keng foydalanib, uni turli o'rinlarda turlicha ma'noviy nozikliklari bilan qo'llaydi.

Navoiy asarlarida *til* so'zini insonlar o'zaro fikr almashadigan, muloqot qiladigan qurol, vosita; og'zaki va yozma nutq, matn; badiiy asar, nazm, she'riyat; hayvon tili; nutq jarayoni, amalda qo'llanadigan til; xalqning aloqa vositasi kabi ma'nolarda qo'llaganiga guvoh bo'lish mumkin.

Alisher Navoiy o'z asarlarida *so'z* leksemasidan ham ko'p foydalangan. Mazkur leksema til birligi, leksema (*Bas, avvalg'i sado so'z o'lg'ay, Har savtqa ibtido so'z o'lg'ay*), nutq (*So'zdurki, nishon berur o'lukka jondin, So'zdurki, berur jong'a xabar jonondin*), til lug'at boyligi (*so'z gulshani, so'z bo'stoni*), gap (*So'zni taammul bila der ahli hush*), fikr (*so'zni uzotmoq hojat emas va kalom tatvilin ma'ni ahli mustahsan demas*), gaplashmoq, muloqot (*so'zga tutmoq*), ahd, so'zida turish (*Yana xizmatimda necha yuz hakim, Borining so'zi poku royi salim*), asar, ijod mahsuli (*O'zi daryo, so'zi durdek muhayyo, Yana ma'nidin ul dur ichra daryo*) kabi ma'nolarda qo'llangan [7].

Ulug' alloma o'z asarlarida joy nomlari – toponimlarga ham alohida e'tibor qaratgan. Uning asarlari matnida toponimlar turli shakllarida namoyon bo'ladi. Ta'kidlash lozimki, Alisher Navoiy o'z asarlarida ko'pincha shahar nomlarini qo'llaydi. Bu, bizningcha, o'tmishda shahar so'zi poytaxt, qal'a yoki yirik aholi punktlarini ifodalagani hamda hozirgi qishloq tushunchasi to'liq shakllanmaganligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ayrim hollarda shahar nomlari turli tasviriy vositalar bilan ham ifodalangan. Jumladan, *Baytul muqaddas* atamasi bilan Quddus shahri bir necha o'rinlarda uchraydi. Shuningdek, Barda (Ozarbayjondagi viloyat nomi), Barri Arab (umuman Arabiston hududi), Bobil (Iroqdagi shahar nomi), Bojin (hozirgi Pekin (XXR) shahri), Boxtar (Balxning qadimiy nomi) kabilar ham tez-tez ko'zga tashlanadi. Shoir asarlarida Hirot shahri nomini ko'pincha *Hiri* shaklida qo'llanganligini kuzatish mumkin [8].

Alisher Navoiy toponimlarni ular bilan bog'liq turli jihatlarini inobatga olgan holda ham tasvirlagan. Masalan, Ganja atamasi Ozarbayjondagi shahar nomini ifodalash bilan bir qatorda Ganja orom tarzida qo'llanib, ulug' ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy dafn etilgan makonni ifodalashga xizmat qilgan. Shoir asarlarida Buluk atamasiga ham duch kelamiz. Mazkur atama viloyat, shahar atrofi, katta qishloqlarni ifodalash uchun ishlatilgan. Demak, ulug' daho joy nomlaridan ham o'ziga xos zukkolik bilan foydalangan.

Shoir «Muhokamat ul-lug'atayn» asarida qator fe'llarni lisoniy tahlil qilar ekan, ularning umumiy lisoniy mohiyatini o'z va o'zga tillar unsurlari bilan munosabatlarda ochib, so'zlar semik tarkibidagi miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga aylanish asosida so'z ma'nolarida borliqning gradual (darajalangan

tarzda) aks etishini ko'rsatadi. Shu bilan birga Alisher Navoiy so'z va uning qudrati, ma'no qirradi haqida g'oyatda qiziqarli dalillarni bayon etadi.

Alisher Navoiy so'zlar o'zaro yaqin ma'nodosh bo'lish bilan birga, ular yana o'ziga xos turli ma'no nozikligi bilan bir-biridan farq qiladi, deb «yig'lamoq» so'ziga mazmunan yaqin bo'lgan yettita sinonimni keltiradi: *yig'lamoq, ingramoq, singramoq, siqtamoq, o'kirmoq, inichkirmoq, hoy-hoy yig'lamoq*. Bu sinonimik qatordagi har bir so'zga oldin semik (ma'noviy) izoh beradi, so'ngra shu izohga mos bayt keltiradi. Jumladan, “ko'zidan yosh chiqarmasdan yig'lash yig'lansinmoqdir. Yig'lansinmoq – bu haqiqiy yig'lash emas” (*Zohid ishqin desaki, qilg'ay fosh, Yig'lamsinuru ko'ziga kelmas yosh*); “dard bilan yashirin, ohista yig'lamoq ingramoq va singramoqdir. Ya'ni, “va ingramoq va singramakkim, dard bila yashurun ohista yig'lamoqdur va oralarida tafovut oz topilur” (*Istasam davr ahlidin ishqingni pinhon aylamoq, Kechalar goh ingramoqdir odatim, goh singramoq*). Alisher Navoiy o'z izohiga «bu ikkala so'zning oralarida tafovut oz topilur», deb qayd qilgan.

Shoir fikrlarini davob ettirib “forsida bu mazmunki bo'lmag'ay, shoir ne chora qilg'ay? Va siqtamoqkim, yig'lamoqda mubolag'adur, turk bu nav' ado qilibdurki” deb qayd etadi (*Ul oyki kula-kula qirog'latti meni, Yig'latdi meni demayki, siqtatti meni*).

Yana biyik un bilaki, e'tidolsiz oshub bilan yig'lagaylar, ani o'kirmak derlar, deb shoir yozadi (Ishim tog' uzra har yon ashk selobin surmakdur, Firoq oshubidin har dam bulut yanglig' o'kurmakdur). Yana yig'lamoqning o'kurmagi muqobalasida inichkirmoq dag'i bor va ul inichka un bilan yig'lamoqdur va ul turk lafzida bu nav' tarkib bilan ado topibdur (Charx zulmidaki, bo'g'zumni qirib yig'larmen, Igurur charx kibi inichkirib yig'larmen) [1].

Misollardan ko'rinadiki, *yig'lamoq* so'zining har xil ma'nodoshi kishilarning fikr va his-tuyg'ularini aniqroq, ravshanroq ifodalash, har bir baytning ta'sirchanligini oshirish uchun muhim uslubiy vosita bo'lib xizmat qilgan.

Ikkinchidan, shoir *yig'lamoq* so'zining she'riyatda oshiqlar iztirobini aks ettirgan bir kichik bo'lagi haqidagina fikr yuritadi va turkiy tilning naqadar boy imkoniyatini, uning go'zalligini namoyish etadi. Agar shoir «yig'lamoq»ning boshqa muhitda, ya'ni ta'ziya ma'rakalari yoki jabrlanish oqibati, turli fojealardagi ko'rinishlarini bayon etganida, bu so'zning sinonimlar miqdori yana ham oshgan bo'lar edi.

Shoir «Muhokamat ul-lug'atayn» asarida yana *ichmoq* so'zining *sipqarmoq, tomshimoq, bo'xsamoq* kabi, *tikan* so'zining *cho'kurki, yasanmoq* so'zining *bezanmoq, chaqin* so'zining *ildirim* kabi ma'nodoshlari mavjudligi va bu ma'nodoshlik qatoridagi so'zlarning nozikligini ko'rsatuvchi baytlar keltirgan.

Alisher Navoiy yuqorida qayd qilingan asarida nafaqat, ma'nodosh so'zlar, balki shakldosh, qarama-qarshi ma'noli hamda ko'p ma'noli so'zlar va ularning uslubiy xususiyatlari haqida ham fikr yuritgan. Bu bilan shoir o'zbek tilining boyligi, yuksak darajada go'zalligini ilmiy-nazariy hamda amaliy tomondan isbotlab beradi.

Alisher Navoiy o'z asarlari orqali o'zbek tilining betakror jozibasi, lug'at boyligining kengligi, ma'noviy imkoniyatlarining cheksizligini ko'rsatib bera oldi.

Bugungi kunda ham keng iste'molda bo'lgan til, so'z, ma'no kabi tushunchalar bilan bog'liq holatlarni yuksak mahorat bilan tasvir etdi. Shu bois Alisher Navoiy haqli ravishda o'zbek tilining malikul kalomi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн олтинчи том. Муҳокамат ул-луғатайн. – Т.: Фан, 2000.
2. Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Т.: 1995.
3. Орифжонова Ш. Ўзбек тилида луғавий даражаланиш. Номз.диссер.автореф. – Т: 1996;
4. Сафарова Р. Ўзбек тилида гипонимия. Филол. фанл. номз... диссер. автореф. – Т: 1987. – 22 б.
5. Қиличев Б. Ўзбек тилида партонимия. Филол. фанл. номз... диссер. автореф. – Т: 1997. – 23 б.
6. Хайруллаев Х. Тил ва нутқ бирликларининг поғонали муносабати. Филол. фанл. докт... диссер. автореф. –Т. 2010. – 44 б.
7. Исломов Ў. Алишер Навоий асарларида нутқ маданияти талқини. Филол.фанл.номз....диссер.автореф. –Т. 2011. – 28 б.
8. Навоий асарлари луғати. Алишер Навоий асарларининг ўн беш томлигига илова. –Т.1972. – 784 б.

ЛЕКСИК ОРТИҚЧАЛИК БАДИИЯТИ

Рано ЮСУБОВА,
филология фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти
(Ўзбекистон)

Email: yusubovarano49@gmail.com

Аннотация: В статье анализируется художественная ценность тюркских, персидских и арабских лексем, относящихся к синонимичному ряду, используемому в газелях Навои на основе лексической избыточности в выражении поэтического смысла.

Ключевые слова: поэтическая текст, лексические синонимы, лексическая избыточность, экспрессивная окраска.

Annotation: The artistic value of turkish, persian, arabic lexemes belonging to a synonymous series used in Navoi ghazals on the basis of lexical redundancy in the expression of poetic meaning is analyzed.

Keywords: poetic text, lexical synonyms, lexical redundancy, color-expressing.

Мумтоз адабий асарларнинг замонавий адабий асарлардан фарқли жиҳатлари тил бирликларининг поэтик мазмун салмоғини ошириш мақсадида нисбатан ортиқча ишлатилишида кўринади, олимлар лисоний ортиқчаликнинг тил учун нечоғлик аҳамиятли эканлигига, гарчи информациянинг етказилишини секинлаштириб, тил элементларини кўпайтирса-да, тушунчанинг янада аниқ бўлишига кўмак беришига урғу

Richard W. Shannon, Obidjon Ishniyozov, Umida Yusubova. Factors ensuring the effectiveness of communication in eastern didactics.....

Моҳинур Сотволдиева. Алишер Навоий ҳаёти ва ижоди хориж олимлари нигоҳида.....

Nasibulloh Mahliyo Hamdiy. نوایی نینگ سیاسی- فلسفی قره شلری.....

Sulaymonli Atilla Nozim. Alisher Navoiyning 580 yilligi Ozarbayjon matbuotida.....

ОЛТИНЧИ ШЎҒБА: НАВОИЙ ИЖОДИ ВА ТИЛШУНОСЛИК МАСАЛАЛАРИ

Суюн Каримов. Маънавиятимиз сарчашмаларидан баҳра олиб.....

Бахтиёр Данияров. Навоий асарларида ёзув қуролини англаторчи сўзлар (қалам, хома, қилк) синонимияси.....

Muhabbat Qurbonova, Muattar Xirojiddinova. Navoiyning soʻz qoʻllash mahorati.....

Zulxumor Xolmanova. Alisher Navoiyning semantika taraqqiyotidagi oʻrni.....

Муродқосим Абдиев, Дилафруз Тамиқаева. Алишер Навоийнинг “Лайли ва Мажнун” достонидаги баъзи иборалар таҳлили.....

Маҳмуд Равшанов. Алишер Навоий асарларида рақамли технологиялар тавсифи хусусида.....

Дурдона Лутфуллаева, Гулноз Эрназарова. Алишер Навоий асарларида қўлланилган минералогияга оид кўп маъноли терминлар хусусида.....

Bayramali Kilichev. Alisher Navoiy asarlarida til, soʻz, toponim va maʼno talqini.....

Рано Юсубова. Лексик ортиқчалик бадиияти.....

Ражаб Хидиров. Алишер Навоий асарларида қўлланилган айрим тиббий атамаларнинг лексик-семантик хусусиятлари.....

Botir Zaripov, Baxtiyor Xolmuhammedov. Alisher Navoiy asarlarida zoonimlar va takrir sanʼatidagi mushtaraklik hamda ularning badiiyati.....

Фазлиддин Нажмиддинов. Социальные дифференциации лексики и словообразования в лингвистическом трактате Алишера Навои.....

Rano Nuritdinova. Alisher Navoiy asarlari tilida uchraydigan antroponimlarning leksik-semantik xususiyatlari.....

Furqat Nurmanov. Alisher Navoiyning til va nutq birliklariga oid qarashlari.....

Алижон Аллабердиев. Алишер Навоий асарларида ўғуз шеваларига хос сўзлар.....

Nasiba Yarashova. Expression of emotional-expressiveness in assimilation lexemes.....

Mushtariy Xolmuradova. Alisher Navoiyning til va jamiyat masalalariga oid qarashlari.....

Фаррух Юлдашев. “Ҳайрат ул-аброр” достонида шахс маънавий сифатларини ифодаловчи атов бирликлар.....